



XALQARO TRANSPORT TASHUVLARIDA JAXON TAJRIBALARINI MAMLAKATIMIZ LOGISTIKA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHGA TADBIQ ETISH

Shuxratjonov Abdurahmon Furqatjon o'g'li

Iqtisodiyot fakulteti talabasi

Namangan davlat universiteti

Namangan, O'zbekiston

abdurahmonshuxratjonov06@gmail.com

To'liqinboyev Farruxbek Abdullo o'g'li

Iqtisodiyot fakulteti talabasi

Namangan davlat universiteti

Namangan, O'zbekiston

tolqinboyevfarruxbek60@gmail.com

Ilmiy rahbar: Axmedov.R.M

Dotsent, i.f.n

Namangan davlat universiteti

Namangan, O'zbekiston

Anotatsiya: *Ushbu maqolada iqtisodiyotni asosiy sohalaridan biri bo'lgan logistika sohasida bo'lgan jaxondagi yangi tajribalarni respublikamizga tadbiq qilishimiz mumkin bo'lgan jihatlarini ko'rib chiqamiz. Maqola statistik ma'lumotlarni va bu soha iqtisodiy tarmoqlarni qanchalik rivojlantirishiga oid ma'lumotlarni o'z ichiga olgan.*

Kalit so'zlar: *xalqaro transport tashuvlari, multimodal transport, raqamli logistika, savdo aylanmasi, deklaratsiya, global iqtisodiy integratsiya, liberalizatsiya*

Hozirgi globbalashib borayotgan davrda xalqaro transport tashuvlari tizimi mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirishning eng muhim omillaridan biriga aylangan.



Jaxon tajribasida Yevropa ittifoqi, Xitoy, Janubiy koreya kabi davlatlar xalqaro tashuvlarda yetakchilik qilib kelmoqdalar. Ushbu davlatlarning bu sohadagi muvaffaqiyatini multimodal transport, raqamli logistika, ekologik toza texnologiyalardan samarali foydalanishi bilan etirof etishimiz mumkin. Ushbu maqolada dunyodagi ilg'or tajribalar va ularni O'zbekiston sharoitiga tatbiq etish yo'llari tahlil qilinadi. Bugungi kunda mamlakatning geografik joylashuvi, ya'ni Markaziy Osiyo mintaqasining markazida, muhim xalqaro transport yo'laklarining chorrahasida joylashgani, O'zbekistonni nafaqat ichki, balki xalqaro yuk tashish tizimida ham muhim strategik o'ringa ega davlat sifatida shakllantirmoqda. Avtomobil transporti iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchlaridan biri bo'lib, tashqi savdo aylanmasining muhim qismini ta'minlaydi. Chunki avtomobil transporti boshqa turlarga nisbatan harakatchan, moslashuvchan va kichik hajmdagi yuklarni qisqa vaqt ichida yetkazish imkoniyatiga ega. Shu bilan birga, u xalqaro yuk tashish tizimining ajralmas bo'g'ini bo'lib, bojxona chegaralarida amalga oshiriladigan rasmiylashtirish, nazorat va deklaratsiya jarayonlari bilan chambarchas bog'liqdir. Hozirgi davrda global iqtisodiy integratsiya jarayonlarining chuqurlashuvi, logistika tarmoqlarining kengayishi va raqamli texnologiyalarning joriy etilishi natijasida bojxona tizimi oldiga yangi vazifalar qo'yilmoqda. Jumladan, yuklarni tezkor rasmiylashtirish, ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, yuk harakatini onlayn kuzatish, xavf tahlilini avtomatlashtirish va xalqaro standartlarga mos elektron tizimlarni keng tatbiq etish kabi yo'nalishlar asosiy ustuvor masalalarga aylanmoqda.

Yevropa Ittifoqi transport tasuvlarida multimodal tashuvlarni qo'llash, TEN-T kabi yirik transport koridorlarining yaratilishi, tashuvchi kompaniyalar faoliyatini liberalizatsiya qilish, raqamli bojxona xizmatlari orqali yuk oqimini tezlashtirish kabi yondashuvlar ijobiy samara bermoqda. Bulardan dastlabkisi multimodal transport bo'lib bu usul yuklarni kamida ikkita transport turida tashishni anglatadi. Bu bilan tashish harajatlarini minimallashtirish bilan bir qatorda atrof muhit ifloslanishini ham oldini olish va har bir transportni samarali tomonlaridan



foydalashi va salbiy oqibatlarni minimallashtirishiga yordam beradi. YI transport siyosatining asosiy maqsadi 2030 yilgacha 300 km dan ortiq masofadagi yuk tashuvlarning 40 %, 2050 yilgacha esa 80 % ini avtomobil yo‘ldan temir yo‘l va ichki suv yo‘llariga o‘tkazish.¹ Sababi avtomobil transporti xarajatlarini yuqoriligi va atrof muhitga zarar yetkazishi, yo‘l infratuzilmasi noqulay hududlarda yuk tashish vaqtlarining ortib ketishi, yo‘llardagi tirbantliklar. Dengiz transporti va temir yo‘l transporti eng harajati kam transport turi va u ekologiyaga avtomobil transportiga qaraganda bezarar hioblanadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2022 yilda Yevropa Ittifoqida intermodal (multimodal) yuk tashish umumiy yuk aylanishining 8,6 % ini tashkil etgan bo‘lib, bu 175 milliard tonna-kilometrga teng.² Eng katta bozor ulushiga Germaniya (26 % TEU da), Shvetsiya, Fransiya va Italiya ega. Rotterdam va Antverpen portlari bilan bog‘langan temir yo‘l-dengiz multimodal koridorlari dunyodagi eng samarali hisoblanadi³. Bu malumotdan ko‘rishimiz mumkinki temir yo‘l va dengiz transportidan foydalanish bu eng qulay usull hisoblanib harajatlar minimal darajaga tushishini ta’minlayabdi. Bizning davlat geografik jixatdan dengiz yo‘llariga ega bo‘lmaganligi sabalbi temir yo‘l va avtomobil transportidan samarali foydalanish imkoni mavjud.

TEN-T (Trans-European Transport Network) –Yevropa Ittifoqining yagona ichki bozorni ta’minlash va barqaror rivojlanish maqsadida 1996-yildan beri amalga oshirilayotgan eng katta transport infratuzilma dasturi hisoblanadi. U 9 ta asosiy koridor va kengaytirilgan tarmoqdan iborat bo‘lib, umumiy uzunligi 95 000 km temir yo‘l, 78 000 km avtomobil yo‘li, 420 ta port, 280 ta aeroport va 650 ta muhim multimodal terminalni qamrab oladi.⁴

¹ European Commission. (2011). White Paper on Transport: Roadmap to a Single European Transport Area. COM(2011) 144 final, p. 9.

² UIRR (International Union for Road-Rail Combined Transport). (2024). 2023-24 Combined Transport Report. Brussels: UIRR, p. 14.

³ World Bank. (2023). Container Port Performance Index 2023

⁴ European Commission. (2024). TEN-T Progress Report 2024. Brussels.



№	Koridor nomi	Uzunligi (km)	Asosiy multimodal tugunlar	2024-yil holatiga ko'ra tayyorlik darajasi
1	Baltic–Adriatic	5 800	Gdansk – Varshava – Vena – Bolonya – Ravenna	92 %
2	North Sea–Baltic	6 200	Helsinki – Tallinn – Riga – Varshava – Berlin	78 %
3	Mediterranean	9 300	Algeciras – Madrid – Barselona – Lyon – Turin – Milan	88 %
4	Orient/East-Med	7 100	Hamburg – Berlin – Prag – Budapesht – Sofiya – Pirey	71 %
5	Scandinavian–Mediterranean	9 800	Helsinki – Stockholm – Malmö – Palermo	95 % (eng yuqori)
6	Rhine–Alpine	3 900	Genoa – Rotterdam (dunyodagi eng yuklangan koridor)	97 %
7	Atlantic	7 200	Lissabon – Madrid – Parij	85 %
8	North Sea–Mediterranean	5 500	Dublin – London – Bryussel – Lyon	89 %
9	Rhine–Danube	8 100	Strasburg – Myunxen – Vena – Budapesht – Konstansa	76 %



Bunday ulkan loyiha asosida transport tashuvlarini keng qamrovda samarali va ishonchli tashish mumkin. Bunda bojxona tariflarini raqamlashtirish orqali yuk oqimini tezlashtirish imkoniyati taminlanadi.

Xitoy so'nggi yillarda Yevropa va Osiyo o'rtasidagi eng yirik logistik markazga aylandi. Bunga asosiy omillar yangi xalqaro temir yo'l yo'nalishlari, yirik portlar va logistik markazlar qurulishi, transport sohasiga samarali investitsiyalar kiritilishi, tovar oqimini boshqarishda suniy intellektdan foydalanish kabi texnologiyalarni joriy etish desak mubolag'a bo'lmaydi. Bizning mamlakatimizda ham logistika sohasida raqamlashtirishni rivojlantirishimiz muhim jihatlardan biri va bu usul Xitoy tajribasida o'z isbotini topgan. Masalan, mobil ilova yoki veb sayt yordamida yuklarni kuzatib turish imkoni yaratilsa bu tashuvni amalga oshirayotgan korxonalar va tadbirkorlar orasida ishonchni yanada mustahkamlash va eng asosiysi mahsulot yetib kelish vaqtini real holatda nazorat qila olish imkoni bo'ladi buni natijasida mahsulotni ichki va tashqi bozorlarga aniq yetib yetkazilish vaqtini oldindan bilish va bozordagi muvozanatni shu usullar bilan barqarorlashtirishga yordam beradi. Tajribalardan yana biri logistika markazlarini modernizatsiya qilish va shu sohaga investitsiyalarni jalb etish. Bu orqali mamlakatimizdagi ishlab chiqaruvchilarga yangi bozorlarga tez va onson chiqishlari imkoni beriladi. Bu jarayonlar bilan biz eksport hajmini sezilarli darajada oshirishimiz va mamlakat yalpi ichki maxsulotida logistika sohasini salmog'ini oshirishimiz mumkin. Bugungi kunda mamlakatlar orasidagi munosabatlar global tarzda integratsiyalashib bormoqda shu sababli bizning ishlab chiqaruvchilar jaxon bozoriga chiqa olishlari uchun transport tashuvlari bir so'z bilan aytganda logistika sohasi qanchalik muhim ekanligi bu ma'lumotlar bilan yaqqol ko'zga tashlanadi.

Xalqaro transport tashuvlarida Janubiy Koreyaxam o'zning bir nechta ilg'or jixatlari mavjud. Bu mamlakat Tinch Okeaniga yaqin bo'lganligi sababli dengiz tashuvlari uni global bozorga chiqishini osonlashtiradi. Janubiy Koreya 100 dan ortiq mamlakatdagi 500 dan ko'p portlarga ulangan bo'lib, Busan, Incheon va Gwangyang portlari asosiy rol o'ynaydi. Busan porti avtomatlashtirilgan konteyner



terminallari, aqlli logistika tizimlari va chuqur suvli joylar bilan jihozlangan bo'lib, yirik kemalarni qabul qiladi va tranzit vaqtlarini qisqartiradi.

Tashuv turi	Asosiy infratuzilma	Kuchli jihatlar	Qo'llaniladigan texnologiyalar	Izoh / Natija
Avtomobil transporti	Keng avtomagistral tarmog'i, Expressway (ekspress yo'llar)	Tezkor ichki yuk tashish, yuqori sifatlilik	ITS – Intelligent Transport System, GPS monitoring	Ichki logistikaning asosiy qismi avtomobilga to'g'ri keladi
Temir yo'l tashuvlari	KTX (tezyurar poyezdlar), konteyner terminallari	Arzon, ekologik, barqaror	RFID, real-time scheduling, smart railway	Koreyada yuk tashishning samarali tarmog'i
Dengiz transporti	Busan Port, Incheon Port, Gwangyang Port	Dunyo bo'yicha konteyner aylanmasi bo'yicha yetakchi portlardan biri	Avtomatlashtirilgan kranlar, AI-port boshqaruvi	Busan porti Osiyodagi eng yirik tranzit markazlaridan biri
Havo transporti	Incheon International Airport	Juda tez yetkazib berish, global hub	Robotlashtirilgan kargo terminallari, IoT	Incheon aeroporti dunyodagi eng samarali kargo markazlaridan biri
Multimodal tashuvlar	Port–temir yo'l–avto integratsiyasi	Yuqori moslashuvchanlik, tezkor logistika	Smart logistics, e-Tracking	Tovarlarni ichki va tashqi bozorlarga integratsiyalashgan holda yetkazadi



Shahar ichki transporti (logistika)	Smart Distribution Centers	Kam tirbandlik, muvozanatli yuk oqimi	Dron yetkazib berish testlari, IoT omborlar	Urban logistics juda rivojlangan
Bojxona tizimi	KCS – Korea Customs Service	Tezkor rasmiylashtirish	UNI-PASS – global raqamli bojxona tizimi	Jarayonlar 90% avtomatlashtirilgan

Ushbu jadvalda Janubiy Koreyaning umumiy transport tashuvlarini ko'rishingiz mumkin. Bu mamlakatda ham asosiy transport tashuvlari havo, dengiz, temiryo'l, avtomobil transportiga to'g'ri keladi. Bizning mamlakatimiz dengiz yo'llari yo'qligi sabali qolgan uchta transport tizimlaridan eng samarali tajribalarini o'rgansak bo'ladi. Bulardan bizga eng maquli multimodal transport tizimi deb qarasak bu transport turida bizning mamlakatimizga tadbiq etilishi mumkin bo'lgan jihatlarni ko'rib chiqaylik. **Smart Logistics** — bu logistika jarayonlarini raqamlashtirish, avtomatlashtirish va optimallashtirishga asoslangan tizim. **e-Tracking** — bu yukning qayerda turgani, qaysi jarayonda ekanligi, qachon yetib borishini elektron shaklda aniq ko'rsatib beradigan onlayn nazorat tizimi. Bu tizimlar o'z ichiga IoT, sun'iy intellekt, big data malumotlarini o'z ichiga oladi. Bu degani ichki va tashqi logistic firmalar uchun raqamlashtirilgan ekotizim yaratish kerakligini anglatadi. Shunday bir tizim yaratilsa unda yukni tashuvchi kompaniyalar yoki yakka holdagi yuk tashish mashinasiga ega haydovchilar yuklarni olib manzilga yetgazguncha bo'lgan jarayonni dasturdan foydalanib turgan yuk beruvchilar bilib turish imkoniga ega bo'ladilar.

Xulosa Xalqaro transport tashuvlari bugungi globallashuv sharoitida mamlakatlar iqtisodiyotining raqobatbardoshligini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. Yevropa Ittifoqi, Xitoy va Janubiy Koreya tajribasi shuni ko'rsatadiki, multimodal tashuvlarni keng qo'llash, raqamli logistika xizmatlarini rivojlantirish, bojxona jarayonlarini soddalashtirish va zamonaviy infratuzilmani yaratish transport tizimining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu



davlatlar tomonidan yoʻlga qoʻyilgan ilgʻor texnologiyalar – elektron deklaratsiya, onlayn kuzatuv tizimlari, sunʼiy intellektga asoslangan logistika boshqaruvi va avtomatlashtirilgan portlarni joriy etish yuk oqimini tezlashtirib, tashish xarajatlarini kamaytirib, eksport salohiyatini yanada kuchaytirmoqda. Oʻzbekiston ham Markaziy Osiyoning strategik chorrahasida joylashgani, temir yoʻl va avtomobil yoʻllari boʻyicha qulay tranzit imkoniyatlariga ega ekani bois mazkur ilgʻor tajribalarni oʻz sharoitiga mos ravishda tatbiq etish orqali mintaqaviy logistika markaziga aylanishi mumkin. Xususan, multimodal tashuvlarni rivojlantirish, transport koridorlarini modernizatsiya qilish, logistika markazlariga investitsiyalarni keng jalb etish, yuklarni real vaqt rejimida kuzatish imkonini beruvchi raqamli tizimlarni yaratish hamda bojxona jarayonlarini avtomatlashtirish mamlakatning xalqaro savdo aloqalarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Demak, jahon tajribasi Oʻzbekiston logistika sohasini modernizatsiya qilishda aniq yoʻnalishlar va samarali mexanizmlarni koʻrsatib bermoqda. Ushbu yondashuvlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish nafaqat ichki tranzit va eksport salohiyatini oshiradi, balki respublikamizning global iqtisodiy integratsiyadagi oʻrnini mustahkamlaydi hamda barqaror iqtisodiy oʻsishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. European Commission. (2011). White Paper on Transport: Roadmap to a Single European Transport Area. COM(2011) 144 final, p. 9.
2. UIRR (International Union for Road-Rail Combined Transport). (2024). 2023-24 Combined Transport Report. Brussels: UIRR, p. 14.
3. World Bank. (2023). Container Port Performance Index 2023
4. European Commission. (2024). TEN-T Progress Report 2024. Brussels.
5. Xalqaro Logistika oʻquv qoʻllanma. Tuzuvchilar: Xoʻjaev F.E., Poʻlatxoʻjaeva D.M., Aytieva S.A.